QURILISH ARXITEKTURADA CHIZMACHILIK BINOLARI

Shaudirbayev Azamat Omirbayevich
Muratbayeva Kamila Ikram qizi
Xojametova Raushan Jolmirza qizi
Bedaq nomidagi Qoraqolpoǵ Davlat universiteti talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qurilish chizmachiligi "Binoning plani" mavzusida bir qator nazariy malumotlarning muhim tushunchalarini aks ettirilganligi, mavzu mazmunini birmuncha ochib berishda erishilgan*.

Kalit so'zlar*: Qurilish chizmachiligi, arxitektura, shartli belgilar, garfik tasvir, plan mavzusi, fasad;*

Ma'lumki ba'zida berilgan grafik qismidagi planda o'lcham santimetrda bajarilgan va zaririy dement eshik belgilanish ko'rsatmasi belgilanmaganligini uchratamiz. Bunda o'quvchiga noaniqlik tushunchalariga olib kelishi mumkin.

Devor va pardevorlarning plandagi qirqimlari shtrixlanmaydi (bu yerda ularni tush yoki akvarelda bo`yalsa yanada yaxshi). O'quvchilarga plan chizmasini chizish ko'nikmalarini shakillantirishda shartli belgilar, elementlar ( eshik, dereza devorlar va hokazolar) o'lchamlari bilan kirtilsa maqsadga muvofiq bo`lardi.

Bir soatlik dars amaliyoti qismiga kiritilgan "Binoning qirqimi" mavzusi mazmunini qrqim hosil qilish tartibi, shuningdek qirqim deb nomlanishi va binoning konstruksiyalari, elementar belgi va xususiyatlari nomlari jamlanmasi mavzuning mazariy qismini yoritilgan. O'quvchilarga arxitektura qurilishda ishlatiladigan barcha qismlari nomlari haqida ma'lumot berilgan.

O'quvchilar bajarishi ko'zda tutilgan mashq va topshiriqlarda qurilish chizmachiligi bo'limi uchun umumiy qilib berilgan qirqim hamda plani tasvirini o'qish , bino elementlarini mashq daftariga yozish tavsiya qilingan. Amaliy ishda o'qituvchi tomonidan berilgan elementlarni shartli grafik tasvirlarini chizish ko'zda tutilgan.

Shuningdek mavzu negizi, qurilish chizmalaridagi tasvirlar (plan, fasad, va qirqim) ga urg'u berilgan. Ammo qurilish chizmachiligi haqida Umumiy tushunchalar" mavzusini tushuntirishda mazmun va hajm jihatdan boshqacha shaklda tashkil qilishi ham mumkin edi. Quyida shu haqda metodik tavsiyalar beramiz.

Har bir kishi uy-joy qurish jarayonida, xarid qilishda, uy-joy yoki bog hovlini qayta jihozlashda, mebellarni xona yoki ish kabinetida joylashtirishda qurilish chizmachiligining ko`rinishlari bilan u yoki bu darajada duch keladi. Bundan tashqari arxitektura "grafika tili"ning xususiyatlarini bilish inson umumiy madaniyati va bilimlarining tashkil qiluvchilaridan biri hisoblanadi. Shuningdek qurilish chizmachiligini chizmachilikning boshqa (mashinasozlik va hokazo)bo'limlari bilan farqlarini kiritish mumkin edi.

Plan tushunchasi uning bajarilish tartubu izoxi bilan ifodalangan.Darslikda plan uning hozil qilinishi, atalishi qoidasini va planda tasvirlanadigan bino konstruktiv elementlarni sanab o'tadi. Takidlanganidek har bir qavat uchun alohida plan chizilishi aytiladi.Mavzu nazariy qismi qisqacha berilganligini ko'ramiz. Grafik tasvirlarda plan hosil qilishni aksonometrik ko'rinishi, mavzuni birmuncha oydinlashtirgan.

Plan mavzusi juda qisqa va ayrim xatoliklarga (chiziq turlari inobatga olinmagan va hokazo) yo'l qoyilgan. Fasad, bunda eshik deraza konstruktiv elementlar tasvirlanishi, otmetkalar va o'lcham qo'yish qoidalari nazariy qismi mazmunini tashkil qiladi. Bino yaqqol tasviri uning fasadi va ikki xonali uy fasadi grafik qismidan berilgan.

Qo'shimcha qilib aytganda Fasad" jumlasi asosiy ko'rinishni anglatadi. Fasad bosh (ko'chaga qaragan), hovlidan ko'rinishi yoki yon tomondan ko'rinishi bo'lishi mumkin. Fasad 0.2....0.4 mm qalinlikdagi chiziqlarda bajariladi, 1-7 fasad deb nomlanishini aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Raxmonov I. Chizmalarni chizish va o`qish. - T., «O`qituvchi». 1992.

2. Oripov B. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. -T.: «IlmZiyo», 2006.

3.Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘IIari. - T.; Nizomiy nomidagi TDPU, 2004.

4.Yo'ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008.